

HUDUDGAZTA' MINOT

AKSIYADORLIK JAMIYATI

TABIIY GAZNI ULGURJI ISTE'MOLCHILARGA YeTKAZIB BERISH VA QABUL QILISH ShARTNOMASI

№ 02/50

Farg'ona 2022 yil

Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga yetkazib berish va qabul qilish

ShARTNOMASI

2022 yil "5" yanvar

02/50 -son

Farg'ona shaxri
(shartnoma tuzilgan joy)

Nizom asosida faoliyat yurituvchi, Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi nomidan (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), raxbar G.A.Xalilova, bir tomondan Nizomga asosan faoliyat yurituvchi "Xududgaz Farg'ona" gaz ta'minoti filiali (gaz ta'minoti tashkiloti nomi keyingi o'rinlarda "Etkazib beruvchi" deb ataladi), direktor U Qosimov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I.ShARTNOMA PREDMETI

1.1. Yetkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyingi o'rinlarda gaz deb ataladi) yetkazib berish majburiyatini oladi, Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga oshiradi.

1.2. Yetkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyihasiga muvofiq, gazdan foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek, gazni hisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda yetkazib beradi.

1.3. Iste'molchi Yetkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga (Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat) nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan ehtiyojni taqdim etadi.

Iste'molchi joriy yilning 15 iyul kuniga qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmin qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha yetkazib beriladigan gaz hajmi texnik shartlarda belgilangan bosim va hajmda 2022 yilda 1 723 105 kub.m, narxi 1 137 249,300 ming so'mni tashkil qiladi, jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

I chorak	1 723105	kub.m,	yanvar	600000	fevral	600000	mart	523105
II chorak	_____	Ming kub.m,	aprel	_____	may	_____	iyun	_____
III chorak	_____	Ming kub.m,	iyul	_____	avgust	_____	sentyab	_____

IV _____ Ming kub.m,oktyabr _____, noyabr _____, dekabr _____
chorak

Etkazib beruvchi tomonidan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun magistral va gaz taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chiqqan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilarga 20__yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi _____ ming kub metrni, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagini tashkil qiladi:

I chorak _____ Ming kub.m, yanvar _____, fevral _____, mart _____.

II chorak _____ Ming kub.m, aprel _____, may _____, iyun _____.

III chorak _____ Ming kub.m, iyul _____, avgust _____, sentyabr _____.

IV chorak _____ Ming kub.m, oktyabr _____, noyabr _____, dekabr _____.

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani taqdim etmasa, Yetkazib beruvchi tomonidan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanadi.

1.6. Yetkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan hajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi mumkin. Iste'molchi tomonidan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

II. GAZNI YETKAZIB BERISH SHARTLARI

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) muddatlarda va hajmlarda hamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq tarzdagi tabiiy gazni yetkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi Yetkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan joriy oy uchun gaz iste'molining sutkalik me'yori doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oy oxirida tuzilgan gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Yetkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz yetkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgarganligi to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

Yetkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari:

Iste'molchi manzili va telefon raqami:

2.4. Yetkazib beruvchi Iste'molchini gaz yetkazib berish qisqartirilishiga qadar kamida 24 soat avval bu haqida xabardor qilishi shart, magistral gaz quvurlarida yuz bergan

avariya holatlari bundan mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan keyin gaz yetkazib berish darhol qisqartiriladi yoki to'xtatiladi.

2.5. Magistral va taqsimlovchi gaz quvurlarining texnologik ish rejimlari buzilganda, shuningdek, kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha ob'ektlarini va aholi istemolchilarini bir maromda tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida Yetkazib beruvchi Iste'molchini ogohlantirgan holda gaz yetkazib berishni cheklash yoki to'xtatib qo'yish huquqiga ega, Iste'molchi esa zaxira yoqilg'i turidan foydalanishga o'tadi.

2.6. Iste'molchi Yetkazib beruvchi bilan gaz yetkazib berish-qabul qilish doirasida tezkor ma'lumotlarni muntazam almashishni ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7. Iste'molchi zaxira yoqilg'i turidan foydalanishni ko'zda tutishi va uni yetarli miqdorda (3 oydan kam bo'lmagan muddatga) shakllantirishi shart. Iste'molchi Yetkazib beruvchining asoslangan talabi bilan tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq zaxira yoqilg'iga o'tishi va gazdan foydalanishni to'xtatishi lozim. Gaz yetkazib berishning to'xtatilishi tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

2.8. Iste'molchi o'ziga tegishli bo'lgan gaz tarmoqlari va ularda o'rnatilgan uskunalar, GTP (gaz taqsimlash punkti), gazdan foydalanish uskunalaridan soz holda foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish hamda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

2.9. Iste'molchining qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatilishi, rekonstruksiya qilinishi yoki ta'mirlanishi oqibatida gaz sarflash hajmi o'zgarishiga olib kelgan hollarda, Iste'molchi Yetkazib beruvchidan qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalarini o'rnatish yoki rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10. Iste'molchi yoki Yetkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgargan holatlarda ular zudlik bilan bir-birini bu haqida xabardor qilishi shart.

2.11. Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish rejimining yagona uzluksiz texnologik jarayonini hisobga olib, tabiiy gazni ishlab chiqaruvchi va Yetkazib beruvchining talablarini bajarish Iste'molchilar uchun majburiy hisoblanadi.

III. YETKAZIB BERILGAN GAZNI HISOBGA OLISHNI TASHKIL ETISH

3.1. Gazni hisobga olmasdan yetkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.

3.2. Yetkazib berilgan gaz miqdori gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan hisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki o'lehash kompleksi bo'yicha aniqlanadi hamda har ikki tomon imzolaydigan gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Gaz tarmog'ini bo'linishi chegarasi (Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmog'ining boshlanishi hisoblanib) Yetkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi, tegishliligi bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'ini bo'linishi nuqtasi hisoblanadi va unda hisoblash priborlari o'rnatilishi shart.

3.3. Birlik miqdori standart sharoitda 1 m³ gaz olinadi: xarorat 20° C, bosim 101,325 kPa (760 mmHg) (GOST 2939-63 1.1-bandiga asosan). Gaz hajmi gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitda, azot va karbonat angidrid) qiymatlari bo'yicha tuzatiladi.

Gaz miqdori "O'zstandart" agentligining me'yoriy-xuquqiy hujjatlari talablariga muvofiq gaz miqdorini standart sharoitga avtomatik ravishda keltiradigan gazni hisoblash priborlari yordamida aniqlanadi.

3.4. Yetkazib beruvchining yoki Iste'molchining balansida bo'lgan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi uning mulki hisoblanadi.

3.5. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi va Yetkazib beruvchi bilan kelishiladi. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGHNAT-ASKUG) lariga ulanishi lozim.

3.6. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksini o'rnatish va ishlatish amaldagi qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.7. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksi egasi uni ishlatish davomida O'z DSt 8.030:2008 "Yoqilg'i va energiya. Hisobga qo'yiladigan umumiy talablar", O'z DSt 8.031:2008 "Yoqilg'i va energiya. O'lchash priborlari bilan jixozlash va ularni ishlatish" davlat standartlari talablariga, shuningdek o'lchash priborlari ishlab chiqaruvchining talablariga rioya qilish.

3.8. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining metrologik va texnik tavsiflari amaldagi me'yorlar va qoidalarga muvofiq bo'lishi kerak.

3.9. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari "O'zstandart" agentligining joriy qiyoslov ko'rigidan o'tkazilgan sertifikatini va/yoki metrologik attestatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining qiyoslov ko'rikdan va/yoki metrologik attestatsiyasidan o'tish davrini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari egasi gaz o'lchash priborlarini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lchov komplekslarini (va uning tarkibiy qismlarini) "O'zstandart" agentligida metrologik attestatsiyadan o'tkazishning o'z vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir.

3.10. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrlash, torayish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini yechish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish xizmatlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini yechish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalarga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

3.11. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrlash, toraytirish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov

kompleksining qismlarini yechish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini yechish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalarga muvofiq egasi (yoki uning servisi xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

Yetkazib beruvchining vakilini gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksining egasi chaqiradi.

3.12. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarini modernizatsiya qilish, gaz o'lchash priborlarini almashtirish, gazni o'lchashning boshqa usullarini tanlash masalalari Yetkazib beruvchi bilan kelishiladi.

3.13. Gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitdagi zichlik, azot va karbonat angidrid) gaz o'lchash priborining konfiguratsiyasiga kiritiladi.

Gaz o'lchash priborining egasi gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida gaz o'lchash priborini konfiguratsiyasiga kiritishni ta'minlaydi. Yetkazib beruvchi Iste'molchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida yetkazib berilishini ta'minlaydi.

3.14. Yetkazib beruvchi o'zining tamg'alarini gaz o'lchash priborlariga va/yoki o'lchash kompleksining gaz hajmini o'lchashga ta'sir qiladigan qismlariga Iste'molchi ishtirokida o'rnatadi va tegishli dalolatnoma tuziladi. O'rnatilgan tamg'alarni butliliga Iste'molchi javobgardir.

3.15. Yetkazib beruvchi Iste'molchining gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari va ularning tarkibiy qismlarining to'g'ri ishlashini kuzatish xuquqiga ega. Shu bilan birga, Iste'molchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Yetkazib beruvchi vakillarining o'lchash priborlari va/yoki o'lchash komplekslariga to'siqsiz kirishini ta'minlaydi.

3.16. O'z DSt 8.586.(1-5)-2005 bo'yicha o'lchov kompleksi va o'lchash priborlari ishida g'ayritabiiy holatlar yuzaga kelgan taqdirda O'z DSt 8.064:2017 bo'yicha gazning miqdori hisoblanadi (korrektirovka). O'lchash qurilmasi va /yoki o'lchash kompleksi faoliyatiga ruxsatsiz aralashish holatlari bundan mustasno.

3.17. Olingan gaz uchun hisob-kitob, quyidagi hollarda tamg'alanmagan gazdan foydalanish uskunasing 24 soat davomida ishlab turishi hisob-kitobidan amalga oshiriladi:

a) gazni hisobga olmagan holda gaz iste'moli – gazni hisoblash pribori va gazni sarf qilish normasi bo'lmaganda, gazni hisoblash priborini chetlab o'tgan xolda iste'mol qilish (noqonuniy baypas liniyalari ulanganda) oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

b) hisobga olish priborini ulash tartibi va sxemasi o'zgartirilganda - oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

v) hisobga olish pribori buzilganda (hisobga olish pribori buzilganligini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lganda) – shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarini inobatga olgan xolda bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

g) hisobga olish pribori mavjud bo'lmaganda – qiyoslov ko'rigidan o'tkazish uchun yechilganda – hisobga olish pribori yechilgan kundan "O'zstandart" agentligidan qiyoslovdan o'tkazilib, sertifikat olinib joyiga o'rnatilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

d) hisobga olish priborini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lchov kompleksini metrologik attestatsiyadan o'tkazish muddati tugaganda – qiyoslov ko'rigidan metrologik attestatsiya o'tkazish muddati tugagan kundan qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik attestatsiya o'tkazish uchun yechilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

ye) hisobga olish pribori yoki o'lchov kompleksining qismlariga o'rnatilgan tamg'alarning butligi buzilganda – oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab, lekin bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

j) hisobga olish priborini o'zboshimchalik yechib qo'yilganda – oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

z) gazni tarqatish tarmoqlarining texnologik rejimini buzadigan gaz quvurlarida yoki GTPlarida asbob-uskunalar o'rnatilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtda;

i) Gaz hisoblash uskunasi konfiguratsiyalariga noqonuniy tarzda tashqi ta'sir ko'rsatgan holda tabiiy gazni iste'mol qilish holatlari aniqlanganda – tashqi ta'sir ko'rsatilgan kundan boshlab (agar aralashuv kunini va faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa), biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga;

k) hisobga olish priborining xotirasida saqlanadigan arxiv ma'lumotlarini yo'qotish, gaz o'lchashni avtomatlashtirilgan tizimidan hisobot oyida ma'lumotlar olish imkoni bo'lmaganda yoki yetkazib beruvchining operativ jurnallaridan olingan ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda. (Hisob-kitob uchun TGHNAT (ASKUG) tizimi joriy qilingan iste'molchilarda hisobot davri uchun arxiv ma'lumotlari mavjud bo'lmagan hollarda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar TGHNAT tizimida qayd etilgan ma'lumotlardan olinadi);

l) gaz iste'moli hajmlari hisobga olish priborining ruxsat etilgan maksimal o'lchov chegarasidan ortiqcha bo'lganda, plombalanmagan gaz jihozlaridan foydalanilgan gaz uchun hisob-kitoblar oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo'lmaganda esa – gaz ta'minoti tashkiloti vakili tomonidan oxirgi marta borib ko'rilgan kundan amalga oshiriladi;

m) gazlashtirish xujjatlarini rasmiylashtirmasdan iste'molchi tomonidan qo'shimcha gaz qurilmasi o'rnatish holati aniqlanganda (qo'shimcha gaz anjomlarini o'rnatib olib foydalanayotganlik fakti bo'yicha asoslantiruvchi hujjatlar mavjud bo'lganida) - bir hisob-kitob davriga;

3.18. Iste'molchining hisobga olish pribori gaz hajmini pastki chegarasi ostida sarflaganda, gaz hajmi hisobga olish pribori va/yoki o'lchov kompleksining me'yoriy-texnik xujjatlarida ko'rsatilgan o'lchovining pastki chegarasida olinadi.

3.19. Yetkazib beruvchi tomonidan yetkazib beriladigan gaz hajmining ishonchliligiga ta'sir ko'rsatuvchi o'lchov komplekslari va hisoblash priborlarining ishlashi buzilgan holatlar aniqlanganda, Yetkazib beruvchi "O'zstandart" agentligi bo'linmalarida o'lchov komplekslari va gazni hisoblash priborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

Agar o'lov komplekslari va hisoblash priborlari nosoz bo'lsa, ekspertizadan o'tkazganlik uchun to'lovlar Iste'molchi tomonidan, soz holatda bo'lganda esa –ekspertiza o'tkazilishi talab qilgan Taraf tomonidan amalga oshiriladi.

3.20. Agar hisobga olish pribori ishdan chiqqandayoki hisobga olish priboridan gaz sizib chiqish holatlari aniqlangan taqdirda Iste'molchi 24 soat ichida Yetkazib beruvchiga bu haqda xabar berishi shart. Shuningdek korxonadagi gaz ishlatadigan asbob-uskunalarini ishlash grafigini tuzishi va ishlamaydigan gaz asbob-uskunalarini Yetkazib beruvchi bilan birgalikda o'chirib tamg'alanishini ta'minlashi shart.

3.21. Hisobga olish priborlarida gaz sizib chiqish xolati aniqlangan taqdirda qayta hisob-kitoblar ohirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrda amalga oshiriladi. (O'z DSt 8.586 ga ko'ra gazni aniqlash tizimlari germetik holatda bo'lishi kerak).

IV. YETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN HISOB-KITOBNI AMALGA OSHIRISH

4.1. Iste'molchi mazkur shartnoma asosida yetkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2. Gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

4.3. Iste'molchi hisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Yetkazib beruvchining hisob raqamiga ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarida ko'rsatilgan oylik gaz hajmi qiymatining 100 foiz summasini oldindan to'laydi.

Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib yetkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida Yetkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotining hisob raqamiga tabiiy gaz yetkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymati summasining 50 foizi miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob hisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz yetkazib berilmaydi.

4.5. Oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Iste'molchiga gaz yetkazib berilmaydi (strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilar bundan mustasno).

4.6. Iste'molchi har oyning 10 sanasiga qadar avvalgi oyda iste'mol qilingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshirishi kerak.

4.7. Strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilar hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8. Tabiiy gazdan foydalanishda Iste'molchining aybi bilan tabiiy gaz yetkazib berishga shartnomada ko'rsatilganidan hajmdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisobga olinadi.

4.9. Iste'molchi tomonidan tabiiy gaz yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilanganidan ko'p hajmda va gaz ta'minoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz olingan taqdirda, Iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1,4 koeffitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, belgilangan tartibda hisoblash priborini almashtirish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, tekshirish va sozligini monitoring qilish uchun yechib olish, shuningdek, Iste'molchiga aloqador bo'lmagan turli hil (elektr ta'minoti

nosozligi, chaqmoq, qisqa tutashuv va x.k)dagi texnik nosozliklar aniqlanganligi sababli iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmini o'rnatilgan gaz asbob uskunalarini to'liq quvvati bo'yicha hisob-kitob qilinishi natijasida shartnomadagi hajmlardan ortiq hajmlarni tashkil qilgan holatlar bundan mustasno.

4.10. Tabiiy gaz uchun Iste'molchining to'lov muddati o'tgan qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari Iste'molchini xabardor qilgan holda to'lov muddati o'tgan qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

4.11. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda yetkazib berilgan gaz qiymati o'z vaqtida to'lanmaganda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12. Hisob-kitob oyida yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmi Yetkazib beruvchi vakillari tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priboridan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGHNATga ulangan, shuningdek, tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlariga ega bo'lmagan va belgilangan me'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchilar bundan mustasno) asosida, keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar Fossa tizimiga kiritish, shuningdek, iste'molchilar tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini interaktiv xizmatlar vositalaridan foydalangan holda kiritish orqali aniqlanadi.

4.13. Shartnomaning 4.12-bandiga asosan ko'rsatkich olinganidan so'ng keyingi oying 5 kuniga qadar Yetkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz yetkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi va elektron hisobvaraqa-faktura rasmiylashtiriladi.

4.14. Yetkazib beruvchiva Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblarning haqqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida gazni yetkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi Iste'molchida quyidagi texnik hujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni hisoblash pribori hotirasidan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) Iste'molchiga taqdim etiladigan, Iste'molchining bo'linish chegarasigacha bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQLardagi texnologik yo'qotishlarning hajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi; Bunda Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmoqlari va GTQdagi texnologik yo'qotishlar Iste'molchi hisobiga olib boriladi.

4.15. Iste'molchi oynning 7 kundan kechiktirmasdan Yetkazib beruvchidan xisob-kitob oyi uchun gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini va

elektron hisobvaraq-fakturani qabul qilib oladi, imzolaydi va bir nusxasini Yetkazib beruvchiga jo'natadi.

4.16. Tabiiy gazni yetkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni e'tirozlar bilan imzolash Iste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'g'rida ma'lum qilib, so'ng dalolatnomaning bir nusxasini Yetkazib beruvchi vakiliga taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17. Iste'molchidan debitor qarzlarni undirish Yetkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18. Gaz uzib qo'yilganidan so'ng o'zboshimchalik bilan qayta ulanganda, iste'mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo'yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasiining bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishlab turishi hisobidan aniqlanadi.

4.19. Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgargantaqdirda, Yetkazib beruvchi bu haqidagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgarganida, mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi, iste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuchga kirganidan so'ng amalga oshiriladi.

V. HUQUQBUZARLIKLAR VA GAZDAN NOQONUNIY FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Gazdan foydalanishda Iste'molchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandda ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, Yetkazib beruvchi va Iste'molchi vakillari tomonidan imzolanadigan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq Iste'molchidan, foydalangan gaz hajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmi qiymatining undirilishi Iste'molchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA ULANISH TARTIBI

6.1. Iste'molchida quyidagi holatlarning mavjudligi hamda ushbu holatlarning bartaraf etilguniga qadar gaz tarmoqlaridan uzib qo'yiladi:

- shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda;
- Yetkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunalari va hisobga olish qurilmalarini nazoratdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganda;
- foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;
- shartnomada belgilangan buyurtmalarga yetarli miqdorda oldindan to'lovlar amalga oshirilmaganda;
- Yetkazib beruvchining va "O'zneftgazinspeksiya"ning ko'rsatmalari bajarilmaganda;
- hisoblash priborlariga qasddan zarar yetkazilganda, pribor ko'rsatgichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar amalga oshirilgan holatlarda;
- gazni hisobga olish priborlariga tashqi ta'sir ko'rsatishga harakat qilish;
- Gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki boshqa qoidabuzarliklar yohud gazni talon-taroj qilish holatlari aniqlangandi;

Bunda Yetkazib beruvchi gaz ta'minotining o'chirilishi natijasida yetkazilgan moddiy zarar yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2. Tarmoqqa qayta ulanishda amaldagi qonunchilikka muvofiq Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida haq undiriladi. Shartnomaning 13.1.-bandida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

6.3. Gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGHNAT) lariga ulangan iste'molchilarni masofadan qayta ulash uchun haq undirilmaydi.

VII. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

7.1. Yetkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o'ziga qarashli bo'lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o'z hisobidan ta'mirlash-tiklash;

- o'z gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish;

- tabiiy gaz yetkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'rida Iste'molchilarni xabardor qilish;

- gaz hisoblash uskunalaridan olingan arxiv ma'lumotlarni, elektron ma'lumotlarning barcha parametrlarini kamida uch yil mobaynida o'zida saqlanishini ta'minlash;

- shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandlariga ko'rsatilgan holatlar sodir etilganligi va ushbu holatlarni bartaraf etilguniga qadar tabiiy gaz ta'minotini qo'shimcha ogohlantirishlarsiz tarmoqdan o'chirish;

- tabiiy gazning ruxsatsiz iste'mol qilinganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taroj qilinganligi to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

- Iste'molchiga gaz yetkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni yetkazib berish;

- qonunda nazarda tutilgan tartibda monopoliyaga qarshi davlat organining taqdimnomasiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;

- Yetkazib beruvchi va vakolatli davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

- texnik xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq iste'molchilarning ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmati ko'rsatish;

- Gazdan foydalanish uskunalarini 5 sutka muddat ichida almashtirish;

Yetkazib beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. Yetkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- texnik zaruratga ko'ra, Iste'molchini belgilangan tartibda xabardor qilgan holda, tabiiy gazni yetkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;

ularning qasddan buzilishiga yo'l qo'ymaslik va o'rnatilgan tamg'alarning butunligini ta'minlash;

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishidagi nosozlik aniqlangan taqdirda, gaz ta'minoti tashkilotini o'zi uchun qulay shaklda darhol xabardor qilish.

-Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasida tabiiy gaz sarfi bo'yicha ma'lumotlarni masofadan olish imkoniyatini beruvchi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan (TGHNAT-ASKUG) tizimiga ulangan hisoblash priborlari Iste'molchi tomonidan o'rnatish..

7.4. Iste'molchi Yetkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

- yetkazib berilgan tabiiy gazning aniqlangan hajmiga va boshqa parametrlarga norozi bo'lgan taqdirda, Yetkazib beruvchining tabiiy gazni iste'molini hisobga olish priborlari ishlashining ishonchliligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish;

- tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda ko'zda tutilgan sifatda va yetkazib berish rejimiga rioya qilgan holda uzatilishi;

- tabiiy gazni yetkazib berish shartnomasi bekor qilinganda, foydalanilmagan gaz hajmi uchun to'langan summani qaytarish;

- tabiiy gazni yetkazib berish shartnomasini qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;

- tabiiy gazni yetkazib berish to'xtatilganda, zararni qoplashni talab qilish (shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlari bundan mustasno);

- gaz yetkazib berishni vaqtincha to'xtatishni.

Iste'molchi konunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

VIII. TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

8.1. Yetkazib beruvchi Iste'molchiga gaz yetkazib berish shartnomasiga asosan gaz yetkazib berilmagan yoki to'liq yetkazib berilmaganligi oqibatida yetkazilgan moddiy zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

Yetkazib beruvchi gazni yetkazib bermaganlik yoki to'liq yetkazib bermaganlik uchun quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

a) Iste'molchi tomonidan gaz ta'minoti tarmoqlariga qo'shimcha gazdan foydalanish uskunasi ruxsatsiz ulash holati aniqlanganda;

b) foydalanilgan gaz uchun to'lov amalga oshirilmaganda;

v) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda.

g) iste'molchi tomonidan shartnoma talablariga amal qilinmaganida;

d) mazkur shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlarida ko'rsatilgan hollarda.

8.2. Yetkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarmasligi natijasida Iste'molchiga moddiy zarar yetkazilganda, Yetkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobaridan o'n besh baravari miqdorida jarima qo'llanadi.

8.3. Shartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam hajmda gaz yetkazib berilgan taqdirda, Yetkazib beruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

a) fors-major holatlar;

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida avariya holatlari yuz berganda;

v) qish davrida vaqtincha gaz yetkazib berish cheklanganida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz yetkazib berish tarmog'idan uzib qo'yilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalaridan tashqari);

g) shartnoma asosida Iste'molchi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilmaganda.

8.4. Yetkazib berilgan tabiiy gazning sifati shartnoma yoki normativ hujjatlartalablariga mos kelmaganda, Iste'molchi gaz qabul qilish yoki uning uchun haq to'lashni rad etganda Yetkazib beruvchidan yetkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz hajmi qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'lashni talab qilish huquqiga ega. Agar, gaz qiymati to'langan bo'lsa, Iste'molchi Yetkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summani qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8.5. Yetkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan kam gaz yetkazib berilganda, Yetkazib beruvchi Iste'molchiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan summasining 0,5 foizi miqdorida, biroq yetkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda yetkazib berilgan gaz haqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgano'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

IX. KORRUPSIYA GA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. "Iste'molchi" "Etkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Etkazib beruvchi"ning korrupsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

10.2. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni hal etish uchun taraflar belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi Iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. Shartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

XI. FORS-MAJOR HOLATLAR

11.1. Tomonlar:

a) tabiiy ofatlar;

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida, gazni qayta ishlash korxonalarida va gaz qazibehiqarish joylarida kutilmagan avariya vaziyatlari yuzaga kelganda, shuningdek yengib bo'lmay kuchlar tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar, xususan, sel, yomg'ir, suv toshqini, yong'in chiqishi, yer qimirlashi, virus tarqalishi va pandemiya davrida hamda Hukumat qaroriga asosan taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarish imkoni bo'lmay qolganda javobgarlikka jalb etilmasdan, gaz yetkazib berishni to'xtatish, qisqartirish yoki munosabtlarni to'xtatish huquqiga ega bo'ladilar.

11.2. Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.

11.3. Agar, ko'rsatilgan holatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa, tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomani kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

XII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

12.1. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi hamda taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

12.2. Byudjet tashkilotlari uchun shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralidagi PQ-594-sən qaroriga asosan G'aznachilik bo'limi tomonidan majburiy tartibda ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.3. Shartnoma 2022-yil 31-dekabr gacha bo'lgan muddatga tuzilgan. Shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.

Byudjet tashkilotlari uchun shartnoma bir yilga tuziladi.


12.4. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha da'volari da'vo qabul qilingan kundan boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

XIII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

13.1. Tomonlar o'rtasidagi barcha kelishmovchiliklar o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Tomonlar o'zaro kelishuvga erishmagan taqdirda nizo javobgar joylashgan joydagi tegishli sud tomonidan hal qilinadi.

13.2. Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun ikki nusxada tuzilgan, ikkala nusxasiham bir hil yuridik kuchga ega.

XIV. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI:

«ETKAZIB BERUVCHI»	«ISTE'MOLCHI»
<p>«Hududgaz Farg'ona» gaz ta'minoti filiali</p> <p>Pochta Manzili: Farg'ona viloyati Farg'ona shaxri B.Marg'iloniy ko'chasi №76-uy Tel./faks: 73-229-04-13 x/r: <u>22634000505113960450</u></p> <p>Bank nomi: «Uzsanoatqurilishbank» Rakat filiali MFO: <u>00435</u> INN: <u>306 605 769</u> OKED: <u>35220</u> X/R: _____</p> <p>Rahbar: _____ (F.I.Sh.)</p> <p>Imzosi: _____</p> <p>Muhr o'rni</p>	<p>Farg'ona shahar Xalq ta'limi bo'limi</p> <p>Pochta manzili: Farg'ona sh. G.Farmonova, 17 uy INN <u>200150971</u> OKED <u>97600</u> Muloqot telefoni: : +(8 373) 244-33-53 G'az./h: 23402000300100001 010 Bank nomi Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM)</p> <p>MFO: <u>00014</u> INN: <u>201122919</u> sh/h: 100022860304017092100075050 Farg'ona shahri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi</p> <p>Rahbar: _____ (F.I.Sh.) <u>G.A.Xalilova</u></p> <p>Imzosi: _____</p> <p>Muhr o'rni</p> 

7.12 M. Xalilova

[Handwritten signature]

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA
№ TU6444478442**


1. Loyihaning turi: shartnoma
2. Loyiha qisqa mazmuni: “Hudugaz Farg‘ona” gaz ta‘minoti filiali bilan tabiiy gazni ulgurji iste‘molchiga yetkazib berish bo‘yicha umumiy summasi 1 137 249 300 (bir milliard bir yuz o‘ttiz yetti million ikki yuz qirq to‘qqiz ming uch yuz) so‘mlik shartnoma
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot: Farg‘ona shahar Xalq ta‘limi bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 26-yanvar kuni “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim qilingan
4. Loyiha bo‘yicha taklif: Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



Sh.Musayev
26.01.2022 yil